

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Surxon tongi

2022-yil
22-iyun
(chorshanba)
29-son
(17804)

1935-yil 18-martdan chop etila boshlagan

surxontongi.uz

t.me/surxon_tongi



So'nggi yillarda rahbarlar leksikonida "reessans", "drayver" so'zlari muqim o'zlashdi. Ammo rahbarlarning hammasi ham bu so'zning aniq mag'zini, mohiyatini teran anglamaganligini vaqt isbot etib borayotir. Yana vaqtning hukmi bilan bu so'zning mazmunini o'z ish uslubiga to'laonli singdira olganlar ham yetarlicha ekanligi ma'lum. Viloyat hokimi To'ra Bobolov bilan bitiruvchi yoshlar o'rtasidagi uchrashuv aynan shu ikki so'zning mukammal birlashuvi bo'la oldi. "Yoshlar — III reessans drayveridir" shiori ostidagi uchrashuv kutilgani va kutilmagani kabi qizg'in kechdi.

ta'lim muassasalarini 49 mingdan ziyod yoshlar tamomlaydi. Ularning 32 mingdan oshig'i maktab bitiruvchilari. Meni o'ylantiradigan masala ularning aksari hali ham maqsadga ega emas. Oliy o'quv yurtiga kirish ko'rsatkichi haqida gap ketsa, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabalarining asosiy qismi boshqa viloyatlardan ekanligi ancha o'ylantiradi. Buni bejiz aytmadim, viloyatimizda tibbiyot xodimlariga ehtiyoj ancha yuqori. Siz bitiruvchilarning bunda o'rningiz beqiyos.

Viloyat hokimining yurt taqdiriga befarq emasligi kunday ravshanlashgan uchrashuvda uning statistik ma'lumotlar emas, natija, bir yosh bo'lsa ham jamiyatdan rozi bo'lishi qiziqirishini bot-bot takrorladi. Ta'kidlash o'rinliki, joriy yilda bir yarim ming yoshning shartnoma puli to'lab berilgan bo'lsa, 875 nafar yoshning doimiy ish bilan ta'minlanishiga erishildi. 11 700 nafar yoshning esa kreditga egaligi hisobiga ularga ajratilgan 3,2 milliard so'mlik mablag' maqsadli yo'naltirildi. 5 200 nafar yoshga esa yer ajratib berildi. Viloyat hokimi yoshlarning bugungi kuni behuda ketmasligi kerak deya ularga o'z maslahatlarini ham ayamadi.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi Mahliyo Ko'chkinova "Viloyat hokimi stipendiyasi" ga sazovor bo'lganligi haqida to'liqlanib so'zladi,

Inson qadri

atrofdagilar fikri bilan ham qiziqdim.

— Bu yil maktabimizni birorta ham medal olgan yoshlar tugatmadi, — deydi Qiziriq tumanidagi 30-umumta'lim maktabi direktori Dilbar Saidova. — Lekin bu yilgi 23 nafar bitiruvchining 70 foizi universitetga o'qishga kirishiga ishonchim komil. Ularning ham mazkur uchrashuvda ishtiroki meni ham ruhlantirmoqda. Bu kabi uchrashuvlar, shaxsan hokimning ular bilan dildan suhbat shijoat, g'ayrat, kerak bo'lsa, mas'uliyat yuklaydi.

Dilbar Saidovanning repetitorlik bilan mashg'ul o'quvchilari uning ishonchini oqlaydi. Ota-onasi, oilasi, yurti oldida his qilinayotgan mas'uliyat, albatta, samara berajak. Zalda kayfiyat yuqori. Hech kimda rahbar degan hadik yo'q, erkin, bamaylixtir so'zlamogda. Viloyat hokimi esa tinglashdan erinmayapti...

"MENGACHA BARYER BOR EKAN-DA"

— Mening bir emas, bir necha loyihalarim bor. Qolaversa, ularni boshqa viloyatlarda joriy etish maqsadida bizdan arzonarov mablag' evaziga sotib olmoqchi bo'lishyapti, ular qiziqish bildirmoqda, bizda esa eshitadigan odam yo'q, — dedi TerDU talabasi Dilshod Mahmudov.

Dilshod Mahmudovning o'zi bilan tengqurlari birgalikda yaratgan "Ziyorat mobile", "Bazaar plus" hamda qayta tiklanuvchi manbalar bilan Termiz shahrining energiya iste'molini kamaytirish haqidagi loyihalari bilan tanishgan viloyat hokimi boschi bilan dedi: — Men bugun bildimki, men va sizning orangizda baryer bor ekan. Men siz bilan uchrashuv tashkil etib, sizning dardingizga quloq solaman desam, siz istihola qilar ekansiz, aytmaysiz. Keyin esa hozirgidek mening loyihalarimni, tashabbusimni qo'llab-quvvatlayotgan odam yo'q deysizlar. Bolalar, men sizlarni qo'llab-quvvatlayman. Faqat ayting, siz bejiz drayver deyilmayapsiz...

E, ming bor eshitgan, hattoki o'qigandan ko'ra o'sha yerda o'zingiz bo'lsangiz, ayni muddao bo'lardi-da. Qariyb 3000 nafar yoshni qamrab olgan konferensaloqa shaklidagi uchrashuvda so'zga chiqqan bandixonlik Mavluda O'rolovning kuni kecha bo'lib o'tgan yoshlar festivali borasidagi fikrlarini eshitgan viloyat hokimi ushbu festival tumanlar kesimida ham, xuddi o'sha kayfiyat va darajada bo'ladi deb fikr bildirdi. Festivalning hayajoni hali tarqamay, yoshlar uchun bildirilgan bu taklif uchrashuvni yanada shukuhli etdi. Shuningdek, qiziriqlik yoshlarning fikrini eshitib esa tumanda ochilgan yangi bog' sentyabrgacha yoshlar uchun bepul bo'ladigan bo'ldi. Qaysidir tuman yoshlari uchun zakovat turniri, qaysidir tuman yoshlari uchun esa sayohat chiptalari... Uchrashuv emas edi bu, ishonaverim, bu imkoniyatlar beriladigan kamyob kun edi. Yoki yoshlar aytganidek, orzular ijodat bo'ladigan kun!

Xurshid KARSHIYEV,
Naimullo MUHIBULLOYEV
(surat)

XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHIGA SAYLOV O'TKAZUVCHI VILOYAT SAYLOV KOMISSIYASINING QARORI

XALQ DEPUTATLARI
SURXONDARYO VILOYATI
KENGASHIGA SAYLOV
O'TKAZUVCHI OKRUG SAYLOV
KOMISSIYALARINI TUZISH VA
ULARNING SHAXSIY TARKIBINI
TASDIQLASH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 21-, 25-moddalariga, shuningdek, xalq deputatlari Qiziriq, Sho'rchi, Denov tumanlari Kengashlari tavsiyalariga muvofiq, xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o'tkazuvchi viloyat saylov komissiyasi

QAROR QILADI:

1. Viloyat saylov komissiyasining 2019-yil 6-oktyabrda "Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga saylov o'tkazuvchi saylov okruglarini tuzish to'g'risida" Q-34-son qarori bilan tashkil etilgan Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining bo'shab qolgan o'rinlarga deputat saylovi o'tkazuvchi Qiziriq tumanida 25-Oxunboboyev, Sho'rchi tumanida 38-Dalvarzin, Denov tumanida 43-Guliston okrug saylov komissiyalari tuzilsin va ularning shaxsiy tarkibi tasdiqlansin.

25-OXUNBOBOYEV OKRUG SAYLOV KOMISSIYASI:

Komissiya raisi:
Xoliqova Dilbar Mamayusupovna — Qiziriq tumani, "Qorasuv" mahalla fuqarolar yig'ini raisi;
Komissiya raisi o'rinbosari:
Rajabova Archagul Kenjayevna — Qiziriq tumani, "Qorasuv" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli;
Komissiya kotibi:
Jo'rayev Ilhom Panjiyevich — Qiziriq tumanidagi 16-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi.
Komissiya a'zolari
Yo'ldosheva Zebo O'rozovna — Qiziriq tumanidagi 18-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi;
Muhammadieva Xurshida Bo'riyevna — Qiziriq tumani, "Zarobod" mahalla fuqarolar yig'ini xotin-qizlar faoli;
Imomov Mamayusuf Rustamovich — Qiziriq tumanidagi 16-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi;
Jo'rayev Faxriddin Eshpo'latovich — Ta'lim va fan xodimlari kasaba uyushma Kengashi Qiziriq tumani bo'linmasi bosh hisobchisi;
Tog'ayev Sherzod Boborahmat o'g'li — Qiziriq tumanidagi 47-sonli umumta'lim maktabi o'qituvchisi;
Shaymardonov Anvar Hamidovich — Qiziriq tumanidagi 17-sonli umumta'lim maktabi matematika va informatika fani o'qituvchisi;
Beknazarov Alisher Jovliyevich — Qiziriq tumani oila va xotin-qizlar bo'limi yetakchi mutaxassisi;
Qorayev Umid O'rolovich — O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Qiziriq tumani bo'limi besh tashabbusni muvofiqlashtirish bo'yicha mutaxassisi.

Davomi 2-sahifada.

"DRAYVERLAR" UCHUN "BARYER" YO'Q

Viloyat hokimi jamiyatning ertangi porloq kelajagi egalari bilan doimgidek ochiq chehra bilan suhbatga kirishdi. So'zi avvalida ularga yangi hayot ostonasidagi qarorlarida muvaffaqiyat tiladi. Yangi va yuksak marralar sari ruhlantiruvchi fikrlar

voha iqtisodiyotiga juda zarur, ham vaqt va mablag' tejovchi loyiham bor.

U beshta texnikaning vazifasini bitta o'zi bajara oladi. Moliyalashtirishda ko'magingizni so'rayman.

Viloyat hokimi Asadbekning taklifini tinglagach, bu masala bilan alohida shug'ullanishini, shuningdek, Asadbek o'z loyihasini munosib himoya qila olsa, qancha mablag' ketishidan qat'i nazar qo'llab-quvvatlanishini ta'kidlagach, nafaqat majlislar zali, balki

minnatdorchilik bildirdi. Bu amaliyotning faqat viloyatimizda ekanligini ta'kidlab, o'z hayajonini berkitmadi. Shuningdek, uchrashuvda ishtirok etgan yana bir yosh Sevinch Izzatullayeva ham viloyat hokimidan amaliy ko'mak so'radi: — Ehtiyojmand oilalar ro'yxatida turamiz, — dedi Sevinch. — Menga subsidiya asosida kredit ajratilishida ko'mak bersangiz, o'zim kabi yoshlarni ishli qilardim. Sizing har gal uchrashuvlarda yoshlar uchun yaratib berayotgan imkoniyatlarimizga guvoh bo'lardim-u, gapirishga botina olmasdim. Bugunga nasib qilgan ekan, meni...

Gapni shu yerda bo'lgan viloyat hokimi takrorladi: "Sevinch, qizim, senga subsidiya beriladi.

Bugunog bu masala hal qilinadi. Sen tortinma, sen so'rayotgan narsa sizlar uchun berilgan imkoniyat, o'z imkoniyatingdan foydalan, qizim". Rosti,

viloyatning turli tuman va shaharlaridan onlayn tarzida kuzatib turgan yoshlar ham baralla olqishladilar.

"BUNGA MEN MAJBURMAN, BU MENING MAS'ULIYATIM"

So'zga chiqqanlar istihola bilan "qimmatli vaqtingizni ayamay" deya hokimga tashakkur bildirar ekan, To'ra Bobolov ularni erkin fikr bildirishga, har doim, har qanday vaqtda yoshlarni tinglashga tayyor ekanligini ta'kidladi.

— Kelishib olaylik, men Sizlar bilan har kuni gaplashishga, sizlarni eshitishga tayyorman, — dedi viloyat hokimi. — Bu vazifani mening ma'suliyatim, kerak bo'lsa, majburiyatim deb bilaman. Bemalol, beistihola gapirishingiz mumkin. Sizni eshitish uchun tashkil etilgan bu uchrashuv. Bilasiz, bu yil viloyatimizdagi

viloyat hokimining ko'plab uchrashuvlarida bo'lganim bois, odatiy bir uchrashuvni kutgandim. Viloyat hokimining burchalik samimiy ekanligiga guvoh bo'la turib,



bildirdi. "Men sizlar bilan suhbatlashib hamisha yangi kuch olaman" deya yoshlarning fikr-mulohazalari bilan qiziqqa boshladi.

— Men Termiz shahridagi 13-sonli umumta'lim maktabi bitiruvchisiman, — deb so'z boshladi Jahongir Esanov. — Hali yil yakunlanmay 84 ming AQSH dollari miqdoridagi grant mablag'iga ega bo'ldim. Qolaversa, reytingi yuqori beshta universitetning muddatidan oldin talabasi bo'ldim. Shuningdek, til bilish darajasi bo'yicha xalqaro IELTS darajasining 8 balli sertifikatini oldim. Mening o'zimga ishongan, bilimli bo'lishimda sharoit yaratib bergan ota-onam, ustozlarim va albatta, biz kabi yoshlarni qo'llab-quvvatlayotgan Prezidentimizga, viloyat hokimiga o'z minnatdorchiligimni bildiram.

Jahongir Esanov singari bir necha yosh o'z minnatdorchiligini bildirar ekan, viloyat hokimi gapning xonasi kelganda dadildadil gapirish, taklif va mulohazalar bilan birga muammolarni ham aytish kerak deb yoshlarni to'xtatib turgan kuchni yo'qqa chiqardi. Yoshlar o'zlarini erkin his qila boshlagach, so'zga chiquvchilar soni ortdi, tashakkurlar takliflarga, takliflar muammolarning yechimiga ulandi.

— Mening IT markazdagi faoliyatim davomida bir necha loyihalarim bilan O'zbekiston, hattoki xalqaro chempion bo'lganman, — dedi kasb-hunar maktabi o'quvchisi Asadbek Xasanov. — Mening



Menda taklif bor

Davomi. Boshlanishi
1-sahifada

38-DALVARZIN OKRUG SAYLOV
KOMISSIYASI:

Komissiya raisi:
Ulashov Olimjon Ramazanovich —
Sho‘rchi tuman Xalq ta‘limi bo‘limi
maxsus ta‘mirlash ekspluatatsiya
xizmati boshlig‘i;

Komissiya raisi o‘rinbosari:
Nomozov Asomiddin Botirovich
— Sho‘rchi tumanidagi
67-umumta‘lim maktabi
o‘qituvchisi;

Komissiya kotibi:
Xonnazarov Davron
To‘xtamishovich — Sho‘rchi tuman
Xalq ta‘limi bo‘limi maxsus
ta‘mirlash ekspluatatsiya xizmati
bosh mutaxassisi;

Komissiya a‘zolari:
Jo‘rayev Sherali Xaydarovich
— Sho‘rchi tumanidagi
67-umumta‘lim maktabi
o‘qituvchisi;

Allayorov Bobomurot Cho‘liyevich
— Sho‘rchi tumanidagi 67-umum-
ta‘lim maktabi targ‘ibotchisi;
Ramozanov Sharofiddin
Olimjonovich — Sho‘rchi tumani-
dagi 52-umumta‘lim maktabi
o‘qituvchisi;

To‘raqulov Odil Qayumovich
— Sho‘rchi tumani 88-oilaviy
poliklinikasi katta tibbiyot og‘asi;
Bobonazarov Botir Qarshiyevich
— vaqtincha ishshiz;

Xidirova Dilafro‘z Baxodir
qizi - Sho‘rchi tumanidagi
52-umumta‘lim maktabi
o‘qituvchisi;

Eshqobilov Xolmuxammad
Ochildiyevich — Sho‘rchi
tumanidagi 11-umumta‘lim
maktabi direktori;

Nurmatov Samariddin
Dustmatovich — Sho‘rchi
tumanidagi 11-umumta‘lim
maktabi o‘qituvchisi;

43-GULISTON OKRUG SAYLOV
KOMISSIYASI:

Komissiya raisi:
Raximov Ikrom — Denov tumani,
So‘fi Olloyor MFY faoli;

Komissiya rais o‘rinbosari:
Aliyev Navro‘zbek Xolmurodovich
— Denov tumani, “Sanoatchilik”
mahallasi yoshlar yetakchisi;

Komissiya kotibi:
Muxitdinov Shuxrat Madaminovich
— Denov tumani 74-sonli umum-
ta‘lim maktabi MMIBDO‘;

Komissiya a‘zolari:
Qoraqulov Xusniddin
Choriyevich — Denov tumanidagi
77-umumta‘lim maktabi MMIBDO‘;

Xudoyqulova Ra‘no Nazarovna —
Denov tumanidagi 74-umumta‘lim
maktabi o‘qituvchisi;

Xazratqulov Mansur Murotali
o‘g‘li — Denov tumani, “Guliston”
MFY faoli;

Alimova Xalima — Denov tuman
davlat arxivi direktori;

Oqbo‘tayeva Maftuna Komil
qizi — Denov tumanidagi
80-umumta‘lim maktabida
biologiya
laboranti;

Saydullayev Jaloliddin — Denov
tumani, “Nurli manzil” MFY faoli;


2. Mazkur qaror mahalliy ommaviy
axborot vositalarda e‘lon qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash
komissiya raisi o‘rinbosari
A.Raxmatov zimmasiga
yuklatilsin.

Komissiya raisi **A.Mustanov**
2022-yil 20-iyun K-85 Termiz shahri

Xalq deputatlari viloyat Kengashining
2022-yil 7-iyundagi “Deputatlik
vakolatini muddatida oldin tugatish
va xalq deputatlari viloyat Kengashida
bo‘shab qolgan o‘rinlarga saylov
o‘tkazish to‘g‘risida”gi VI-53-124-8-
0-K/22-sonli qaroriga asosan Xalq
deputatlari Surxondaryo viloyati
Kengashining 25-Oxunboboyev
saylov okruginan saylangan deputat
Poyanov Abdinazarga berilgan 25-sonli,
38-Dalvarzin saylov okruginan
saylangan deputat Diyorova Muqaddas
Alimardanovnaga berilgan 38-sonli
xalq deputatlari viloyat Kengashi
deputati guvohnomalari bekor
qilinganligi **MA‘LUM QILINADI.**

**XALQ DEPUTATLARI VILOYAT
KENGASHIGA SAYLOV O‘TKAZUVCHI
SAYLOV KOMISSIYASI**



Shu bois, xalqaro
huquqning
umume’tirof etilgan

qoidalari ustunligini tan olgan
va demokratik jamiyat qurish
yo‘lini tanlagan mamlakatimiz
o‘z mustaqilligining
dastlabki davridayoq qabul
qilgan Konstitutsiyasining
13-moddasida “O‘zbekiston
Respublikasida demokratiya
umuminsoniy printsiplarga
asoslanadi, ularga ko‘ra inson,
uning hayoti, erkinligi, sha‘ni,
qadr-qimmat va boshqa
daxlsiz huquqlari oliy qadriyat
hisoblanadi. Demokratik huquq
va erkinliklar Konstitutsiya va
qonunlar bilan himoya qilinadi”,
degan qoida mustahkamlab
qo‘yildi.

Shuningdek,
Konstitutsiyaning
II bo‘limi, V-XI

boblarida inson va fuqarolarning
asosiy shaxsiy huquq va
erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy
va ijtimoiy huquqlar, inson
huquqlari va erkinliklarining
kafolatlari hamda fuqarolarning
burchlari kabi huquqiy
normalar alohida belgilangan.
Qolaversa, mamlakatimizni
2017-2021-yillarda
rivojlantirishning beshta ustuvor
yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar
strategiyasi doirasida o‘tgan davr
mobyaynida davlat va jamiyat
hayotining barcha sohalarini
tubdan isloh etishga qaratilgan
300 ga yaqin qonun, 4 mingdan
ziyod O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti qarorlari qabul
qilinadi. Shu jumladan, ushbu
qisqa muddatda mamlakatimiz
bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘lining
chuqur tahlili, jahon bozori
konyunkturasi o‘zgaruvchan
tabiati Bosh qomusimizga
sakkiz marotaba qo‘shimcha
va o‘zgartirishlar kiritishni
taqozo etdi. Biroq keyingi
yillarda davlat organlari va
tashkilotlarga kelib tushayotgan
jismoniy va yuridik shaxslarning
murojaatlari dinamikasi hamda
mamlakatimizda amalga
oshirilayotgan islohotlar natijasi

Qonun tugal bo‘lishi kerak

Demokratik jamiyat barpo etishni ko‘zlagan har qanday mamlakatda inson hamda
uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida Bosh qomusida ko‘rsatib o‘tilgan.

milliy qonunchiligimizni tubdan
isloh qilishni, inson huquqlari va
erkinliklari hamda kafolatlarini
ta‘minlaydigan institutsional
tizimning mukammal mexanizmini
ishlab chiqishni ijtimoiy va
obyektiv zaruratga aylantirdi.

Bu esa, o‘z navbatida,
barcha sohalari kabi,
Konstitutsiyada belgilab
qo‘yilgan ayrim huquqiy
me‘yorlarga tuzatish, qo‘shimcha
kiritish va o‘zgartirishni
asosiy va hayotiy masalaga
aylantirmoqda. Prezidentimiz
ta‘biri bilan aytganda: “Ayni vaqtda
hayotning o‘zi, O‘zbekistonning
jadal taraqqiyoti bu boradagi
faoliyatimizni yangi sifat
bosqichga olib chiqishni talab
etmoqda...”

Shuni ta‘kidlash lozimki,
Konstitutsiyaga
o‘zgartirish kiritish
oddiy qonunga qo‘shimchalar
qo‘shishga nisbatan ahamiyatliroq,
ular xususiyati jihatdan bir-biridan
butunlay farq qiladi. Xususan,
Qonun ma‘lum darajada cheklov
belgilasa, Konstitutsiya qonunlari
qabul qiluvchini, ya‘ni davlat
hokimiyatini tartibga soladi,
xalqning huquqlari va erkinligini
himoya qiladi. Shu sabab
ikkalasi ham “normativ-huquqiy
hujjat” bo‘lishiga qaramasdan,
konstitutsiya va qonun tabiati,
tartibga soladigan faoliyati,
shaxslar doirasi bilan butunlay
farq qiladi.

Shu bois,
Konstitutsiyaga
o‘zgartirish kiritish
jamiyat va davlat hayotida,
insonlarni huquqlarini himoya
qilishda qonunga nisbatan
muhimroq hisoblanadi. Zero,
barcha qonunchilik hujjatlarini
asosini konstitutsiyaviy normalar
tashkil etadi.

Agar rivojlangan xorijiy
davlatlar tajribasiga
nazar tashlaydigan
bo‘lsak, Xalqaro hamjamiyatda
“konstitutsiyaviy laboratoriya”
yoki “konstitutsiyalarning buyuk
iste‘molchilari” deb ataluvchi
Fransiyada XXI asrning birinchi
o‘n yilligida 10 ta konstitutsiyaviy
qonun qabul qilingan. Shuni
alohida qayd etish joizki,
demokratik islohotlar yo‘lidagi har
qanday davlat Konstitutsiyasiga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar:
xoh Bosh Qomus tamoyillari,
xoh boshqaruv mexanizmi bilan
bog‘liq moddalar bo‘lsin, muhim

hisoblansa-da, ular alaloqibat
inson huquqlarini kafolatlashni
amalga oshirish uchun vosita
sifatida xizmat qiladi. Gap, Asosiy
qonunimizga qo‘shimcha va
o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida
ekan, qaysi moddaning qaysi
qismi nega o‘zgartirilishi lozim,
shuningdek, qayerini qanday
o‘zgartirish qaysi qadriyatlarimizni
qaror toptiradi, degan narsalar
haqida aniq fikrlar, shundan keyin
o‘z qarashlarimizni bildirishimiz
lozim bo‘ladi. Chunki, asosiy
maqsadimiz bir qonunning
bajarilishi emas, balki loyihani
mukammal tarzda qabul qilish
bo‘lishi darkor.

Bizga ma‘lumki,
O‘zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi II
bo‘limining “Siyosiy huquqlar”
deb nomlangan VIII bobini
35-moddasida “Har bir shaxs
bevosita o‘zi va boshqalar bilan
birgalikda vakolatli davlat
organlariga, muassasalariga yoki
xalq vakillariga ariza, taklif va
shikoyatlar bilan murojaat qilish
huquqiga ega. Arizalar, takliflar va
shikoyatlar qonunda belgilangan
tartibda va muddatlarda ko‘rib
chiqilishi shart”, degan alohida
huquqiy norma belgilangan.
Bunda, birinchidan, shaxslarga
muayyan harakatlarni sodir
etish mumkinligini ko‘rsatuvchi
huquq normalari nazarda
tutilgan (masalan, shaxsning
davlat organlariga murojaat
etish huquqi), ikkinchidan,
murojaatlarni ko‘rib chiqadigan
davlat organlari va ularning
mansabdor shaxslariga muayyan
harakatlarni sodir etish shartligini
ko‘rsatuvchi yoki ma‘lum bir
majburiyat yuklovchi normalar
sifatida aks ettirilgan.

Biroq Yangi O‘zbekiston
taraqqiyoti strategiyasida
belgilab berilgan
hamma narsa “Inson qadri
uchun” tamoyilini amaliy
natijasini ta‘minlash maqsadida
Konstitutsiyaning yuqorida qayd
etilgan 35-moddasi matnini
quyidagicha o‘zgartirish taklif
etiladi: “Har bir shaxs bevosita
o‘zi va boshqalar bilan birgalikda
davlat organlariga, tashkilotlarga
yoki Xalq qabulxonalariga og‘zaki,
yozma va elektron shaklda ariza,
taklif va shikoyatlar bilan murojaat
qilish huquqiga ega. Murojaatlar
qonunda belgilangan tartibda
va muddatlarda ko‘rib chiqilishi
shart”.

A maldagi konstitutsiyaviy
qoidada nazarda
tutilgan “vakolatli”
va “muassasalariga yoki xalq
vakillariga” degan iboralarni
chiqarish tavsiya etilmoqda.
Bunga asos, birinchidan,
mazkur qoida faqat ommaviy
hokimiyat organlariga beriladigan
murojaatlar sohasidagi ijtimoiy
munosabatlarni tartibga soladi.
Bunda davlat organlari nazarda
tutilib, mantiqan fikrlaganda
vakolatsiz davlat organlari
bo‘lmaydi;

Ikkinchidan, “muassasalariga”
degan ibora “Jismoniy
va yuridik shaxslarning
murojaatlari to‘g‘risida”gi
Qonunning 1-moddasida umumiy
tartibda “davlat organlari” deb
yuritilishi qayd etilganligi bois,
ushbu iborani qo‘llash maqsadga
muvofiq emas;

Uchinchidan, “xalq
vakillariga” degan ibora
umumiy tushuncha bo‘lib,
bunda xalq deputatlari tuman
(shahar)lar, viloyatlar va Toshkent
shahar Kengashlari deputatlari,
Qonunchilik palatasi deputatlari
va Senatorlar nazarda tutilgan
bo‘lib, ular faoliyatida jismoniy va
yuridik shaxslarning murojaatlari
bilan ishlash tartibini belgilovchi
yagona normativ-huquqiy hujjatlar
mavjud emas, shu bois, ushbu
institutni konstitutsiyaviy qoidada
aks ettirish mantiqan to‘g‘ri
bo‘lmaydi.

Masalan, O‘zbekiston
Respublikasining
“O‘zbekiston
Respublikasining konstitutsiyaviy
sudi to‘g‘risida”gi Qonunning
5-bobi “Konstitutsiyaviy sudga
murojaat qilish. Murojaatni
dastlabki tarzda ko‘rib chiqish
va o‘rganish. Ishni ko‘rish uchun
qabul qilish” deb nomlanib, bu
bobda nazarda tutilgan qoidalar
yangi tahrirdagi “Jismoniy va
yuridik shaxslarning murojaatlari
to‘g‘risida”gi Qonuni bilan tartibga
solinmaydi.

Konstitutsiyaning
35-moddasiga “Xalq
qabulxonalariga og‘zaki,
yozma va elektron shaklda”
kabi iboralarni kiritish taklif
etilmoqda. Birinchidan, bugungi
kunda Xalq qabulxonalari
institutini chin ma‘noda, xalq
minbari, muammolar va
ularning yechimi aks etadigan
oydin ko‘zga bo‘lmoqda. Bunda
mamlakatimizning hamma joyidagi

asl vaziyat, xalqimiz, jamiyatimiz
qanday nafas olayotgani yaqqol
namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayonda
barcha soha bo‘yicha yig‘ilayotgan
murojaatlar arxivi kelgusida
istalgan tizim bo‘yicha samarali
va hayotiy tadqiqotlar olib borish
uchun nihoyatda noyob, bebaho
manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Binobarin, bu institutga
yangi tahrirdagi “Jismoniy
va yuridik shaxslarning
murojaatlari to‘g‘risida”gi
Qonunning 2-bobi, 10-, 11-,
12-, 13- va 14-moddalarida
huquqiy maqom berilgan holda
keyingi besh yil davomida Xalq
qabulxonalari murojaatlarni hal
qiluvchi institutsional tizimga
aylanib ulgurdi.

To‘rtinchidan,
Konstitutsiyaning
35-moddasida
murojaatlarning turlari, ya‘ni
ariza, taklif va shikoyatlar
nazarda tutilgan bo‘lib,
shakllari ko‘rsatilmagan. Shu
bois, kontekstdagi murojaatlar
institutning shakllari (og‘zaki,
yozma va elektron) ko‘rsatilsa,
mazkur qoida yanada aniqroq
bo‘lardi. Mamlakatimizda
demokratik huquqiy davlat
va erkin fuqarolik jamiyatini
barpo etish uchun biz
hayotimizning barcha jabhalarida
konstitutsiyaviy nazoratni
kuchaytirishimiz zarur. Bu
esa pirovard natijada inson
huquq va erkinliklarini, uning
sha‘ni, qadr-qimmatini, mol-
mulkning daxlsizligini saqlash,
fuqarolarning mehnat qilish,
ta‘lim olish, tibbiy yordamdan
foydalanish kabi eng asosiy
huquqlarini to‘la ta‘minlash
imkonini beradi.

Muxtasar aytganda,
Bosh qomusimiz
O‘zbekistonning siyosiy,
ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy
tizimlarini muvofiqlashtiruvchi
va harakatga keltiruvchi kuchidir.
U har bir fuqaroni haq-huquqlari
va burchlarini belgilab beradi
hamda uni ro‘yobga chiqarishni
ta‘minlaydi. Davlat hokimiyati
organlarining xalqqa xizmat
qilishini kafolatlaydi. Shu bois,
Konstitutsiyaga qo‘shimcha va
o‘zgartirishlar kiritish jamiyat
va davlat hayotining kelajagini
ta‘minlovchi vositadir.

Sodiq YULDASHOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
professori v.v.b, yu.f.f.d.
Matluba MAMATALIYEVA,
huquqshunos, Xalq deputatlari
Boysun tumani Kengashi
kotibiyati bosh mutaxassisi

So‘z psixologga

ILK TARBIYA O‘CHOG‘I

*Oila tarbiyasi deganda, ota-ona va boshqa oila a‘zolarining ular istagan
ijtimoiy sifatlarini bolada shakllantirish maqsadida unga ko‘rsatgan ta‘limiy
ta’sirlari tushuniladi. Farzand uchun ilk tarbiya beruvchi muhit oiladir. Oila bola
uchun bir vaqtning o‘zida ham hayot kechirish makoni, ham ta‘lim-tarbiya olish
manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bolaning ilk ijtimoiy rivojlanishi davrida oilaning roli
beqiyos.*

Bolaning go‘daklik chog‘ida
ko‘rgan-kechirgan va tafakkuridan
o‘tkazib, xotirasiga joylashib olgan
bilimlari juda turg‘un bo‘ladi. Uni
maxsus psixologik muolajalar orqali
xotirasidan chiqarib tashlanmasa,
ular kishi umrining oxirigacha
saqlanib qoladi va shaxsiy hayotiga,
shu jumladan, shaxs sifatida
shakllanishiga katta ta’sir o‘tkazadi.

Ruhshunoslarning fikricha,
inson ongining 80 foizi besh yoshga
qadar shakllanib bo‘lar ekan.
Pedagoglar ham besh yoshga qadar
bo‘lgan tarbiya butun tarbiyaviy
jarayonning 90 foizni tashkil qiladi,
deya qayd etadi. Har ikki soha
mutaxassislarining yakdil e’tirofiga
ko‘ra, besh yoshdan so‘ng qayta
tarbiyalash jarayoni boshlanar ekan.
Ulug‘ rus yozuvchisi Lev Tolstoy

ham bolalikning dastlabki davri uning
ongida hal qiluvchi bosqich ekanini
ta’kidlab: “Besh yoshli boladan
mengacha bo‘lgan masofa atigi bir
qadam, chaqaloqdan besh yoshli
bolagacha bo‘lgan masofa esa aql
bovar qilmas darajada uzoqdir”, deb
yozgan edi.

Haqiqatan ham, ilmiy xulosalarga
ko‘ra, 5-6 yashar bolalar aql-
farsosat va idrok bobida kattalardan
qolishmaydi, lekin ularda kattalardagi
tajriba va bilim yetishmaydi, xolos.
Ammo, biz aksariyat hollarda ularning
bunday qobiliyatini, afsuski, hisobga
olmaymiz. Ayrim yoshlarimizda
mustaqil fikrlash darajasining pastligi
ham balki shunday munosabat
oqibatidir.

Hozirgi vaqtda ota-onalar
tarbiyachi va murabbiylarning etika,

psixologiya, pedagogika, sohalaridan
xabardor bo‘lishi talab qilinadi. Busiz
farzand tarbiyasini yaxshi yo‘lga
qo‘yib bo‘lmaydi. Bundan 30-40 yillar
ilgari ota-onalar bunday bilimga ega
bo‘lmay turib ham xalq an’analari
negizida xush axloqli, mehr-oqibatli
farzandlarni tarbiyalay olgan.
Chunki o‘sha vaqtlarda bola asosan
oila, nari borsa, mahalla muhitida
tarbiyalangan. Mahalla muhiti-yu
maktabdagi ta‘lim-tarbiya ma‘lum
ma‘noda oilaviy tarbiyani to‘ldirishga
xizmat
qilgan.

Internet saytlari, xorijiy kino
va multfilmlar, qolaversa,
turli kompyuter o‘yinlari bola
dunyooqarashiga, uning xulq-atvoriga
ba‘zan salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani
hech kimga sir emas. Dunyo bolalarini
ohanrabodek o‘ziga tortayotgan
kompyuterning bolalar sog‘lig‘iga
zarari haqida ham bugungi kunda
ko‘p gapirilmoqda. Albatta,
taraqqiyotga qarshi turib bo‘lmaydi,
lekin uning salbiy oqibatlarini
inobatga olish va o‘z vaqtda bartaraf
qilish ham zarur.

Qisqasini aytganda,
urbanizatsiya
sharoitida oilaviy
hayotning
anonimligi,
tasodiflarga
moyilligi
bilan bog‘liq
holda yoshlar
axloqini
nazorat
qilishning
qiyinlashuvi
“ko‘cha



ta’siri”ning borgan sari kuchayishi
natijasida oiladagi tarbiyaviy
muhit ham o‘zgaradi.

Oqibatda ota-onalar tarbiya
borasida yangidan yangi
muammolarga duch keladi.

Bolaga to‘g‘ri munosabatda
bo‘lish, tarbiyaviy tadbirlarning
maqbul yo‘lini tanlashda uning
yosh va individual xususiyatlarini
hisobga olish, ayniqsa, muhimdir.

Bolani shaxs sifatida tan olish
unda o‘zini hurmat qilish, o‘zini
anglash, mustaqil fikr yuritish
ko‘nikmalari shakllanishiga turtki
bo‘ladi.

Bolalar 6-7 yoshga qadar
beixtiyor kattalar xulq-atvoriga
taqlid qiladi, chunki ularda
hali zarur hayotiy tajriba
shakllanmagan bo‘ladi. Agar nima
yaxshi-yu, nima yomon ekani
o‘z vaqtida tushuntirilmasa,
taqlid sifatida boshlangan xatti-
harakatlar odat tusiga kirib qolishi
mumkin.

Nasiba BOBOMURODOVA,
Jarqo‘rg‘on tumanidagi
63-umumta‘lim maktabi
psixologi

Kunlari o'tgan, qiyofalar yodda...

Buyuk adib va uning asarlari haqida juda ko'p gapirilgan, fikr-mulohazalar bayon etilgan. Qodiriy asarlarini o'qir ekansiz, asar qahramonlari va undagi voqealarni bayon etishdagi adibning tasviriy mahoratiga qoyil qolasiz.

Adib asarlaridagi badiiy tasvirlarga ahamiyat bersangiz, qahramonlar tasviri ham sizni befarq qoldirmaydi. Yozuvchi asar yozayotganida hamma jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo'lgan narsam haqidagi barcha materiallarni puxta o'rganib chiqaman."

Biror joy haqida yozar ekanman, o'sha joyni avval necha bor ko'rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o'rganib kelaman. Umuman, mayda detallar o'quvchida yozuvchisiga ishonch uyg'otadi.

Abdulla Qodiriyning bu sinchkovligiga, bu qobiliyatiga har bir asar qahramonining badiiy tasviri shu qadar ustalik va mahorat bilan yozilganligiga, uni go'yo usta rassom ko'z o'ngingizda moy bo'yoqlarda ishlangan surati namoyon bo'lgandek his etganingizda yana bir bor amin bo'lasiz.

Adibning "O'tkan kunlar" asarini o'qir ekansiz, asardagi har bir qahramon tasviridagi o'ziga xoslik, turfa detallar sizni o'ziga tortishi shundan. Yozuvchi Otabekni tasvirlar ekan,

"og'irtabiat, ulug' g'avdali, ko'rkam va oq yuzli, kelishgan, qora ko'zli, mutanosib qora qoshli bir yigit", deydi. Bu tasvirning o'zidayoq kitobxon Otabekning siyrati va surati naqadar ko'rkamligiga ishonadi.

Kumushbibi tasviri esa kitobxonni tamoman lol qilib, o'z ortidan ergashtiradi: "Uning qora zulfi, par yostiqling turlik tomoniga tartibsiz suratda to'zg'ib, quyuq jingala kiprik ostidagi ostidagi ko'zlari bir nuqtaga tikilgan-da, nimadir bir narsani ko'rgan kabi... qop-qora kamon, o'tib ketgan nafis, qiyiq qoshlari chimirlaganda, nimadandir bir narsadan cho'chigan kabi... to'lgan oydek g'uborsiz oq yuzi biroq qizillikka aylangan-da, kimdandir uyalg'an kabi..."

Bu tasvirlarni o'qigan har bir kitobxon ko'z o'ngida Kumushbibi siymosi gumdalanadi. Kitobxon asarni o'qir ekan,

yo'zuvchining tasvir mahoratiga tan beradi. Chunki asarda voqealar rivoji yuksak mantiqiy izchillik bilan ko'rsatilganligiga qaramay, har bir obraz o'z tabiat mantig'iga mos harakatlarnigina qiladigan obrazlarning har biri o'z darajasiga mos keladigan til bilan ta'minlanganligiga, timsollar faoliyatida sun'iylik, zo'raonlik sezilmasligi o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Adibning buyukligi, daho sa'natkorligi shundaki, na asar voqeari rivojida, na obrazlar xatti-harakatlari tasvirida, na muallif bayonida yasamalilik, taxminga yo'l qo'ymaydi. Yo'zuvchining qalamidan to'kilgan tasvir hayotning o'zidagidan ham mukammalroq, tabiiyroq, asosliroqdir.

Asarning bu darajada sevimli bo'lib, xalq qalbidan joy olishiga

sabab uning ommabopligidir. Men esa bu asarni qayta-qayta o'qishni tengdoshlarimga, yoshlarga tavsiya etaman.

"O'tkan kunlar" — o'qishli kitob,
"O'tkan kunlar" — ajib ehtiros,
"O'tkan kunlar" — bitmas iztirob,
"O'tkan kunlar" — nurli bir o'ftob.

Shaxboz O'ROQOV,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti talabasi



ma'lumotnomasini talab qiling. Yuqorida bayon etilgan tavsiyalarga amal qilingan taqdirdagina o'ta xavfli yuqumli kasallik — kuydirgidan o'zimizni asragan bo'lamiz.

V.YO'LDOŠEV,

Viloyat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bo'lim boshlig'i

Bolani tarbiya qilishda eng muhim va eng ta'sirchan vosita bu misoldir. Siz bola uchun ibrat bo'la oling. Qizingiz muloyim bo'lishini istasangiz, u va atrofdagilar bilan muloyim gaplashing; o'g'lingiz mehribon bo'lishini xohlasangiz, unga o'yinchoq emas, mehr va e'tibor ko'proq bering. Maktabga boradigan bola ovqatlanish odobini bilishini niyat qilsangiz, unga "To'g'ri ye, chapillatma, g'imirlama", deb befoyda uqtiravmasdan, uning ko'ziga ko'rinarli qilib o'zingiz odob bilan ovqatlaning. Bola xursand bo'lib yurishini istasangiz, o'zingiz kulib yuring, bola o'ziga ishongan bo'lib voyaga yetishini maqsad qilsangiz, unga ishonch to'la ko'zlar bilan qarang. "Bunday o'qish bilan sendan farroshdan boshqa hech kim chiqmaydi", — desangiz aynan shunday bo'ladi. Bolaga

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalariga zamonaviy axborot-texnologiyalarini joriy qilish orqali ularni raqamlashtirish, natijada aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yanada kuchaytirish va bir qator sohalar vakillari faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilayotir.

Huquqshunos nima deydi?

"Yuridik yordam"

Bugungi kunda ushbu yo'nalishda belgilangan vazifalar amalga oshirilishining tizimliliigi va izchilligini ta'minlash, advokatura faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatishni yangi bosqichga olib chiqish zarurati mavjud.

Sohadagi mazkur ehtiyojlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ustuvor vazifalari, kelgusidagi sohaning rivojlanishi yo'nalishlari hamda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning mexanizmlari ko'zda tutildi.

Qarorda advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash maqsadida advokatura, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari o'rnatilgan elektron ma'lumot almashuvini samarali yo'lga qo'yish nazarda tutiladi. Shu bilan birga advokatura faoliyatini uchun zarur axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlarni shakllantirish hamda ularda saqlanadigan ma'lumotlarning kompleks himoya qilinishi va maxfiyliklari ta'minlash choralarini ko'rish belgilandi.

2023-yilning 1-yanvaridan boshlab, advokatlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya berish, talabgorning malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirganligi haqidagi qaror va tegishli hujjatlar "Litsenziya" axborot tizimi orqali rasmiylashtiriladi va advokatlarining elektron reyestriga kiritiladi. Shu bilan birga litsenziyaning amal qilishi to'xtatib turilgan yoki tugatilgan holatlar axborot tizimida avtomatik ravishda qayd etib borilishi joriy etiladi.

Sohada advokatlik faoliyatini boshlashda malaka imtihonini topshirish, advokatlik faoliyatini uchun litsenziya olish va advokatlik byurosini davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha kompozit xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi va advokatlik tuzilmasi nomini ro'yxatdan o'tkazishda bir xil yoki o'xshash nomlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumot onlayn tarzda olish joriy etiladi.

Qolaversa, fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatish jarayonlarini raqamlashtirish, advokatura sohasini sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda boshqa davlat organlari faoliyatini integratsiya qilishni nazarda tutuvchi "Yuridik yordam" axborot tizimi ham ishga tushiriladi. Mazkur tizimda advokatlar elektron reyestri va advokatlarining shaxsiy elektron kabinetini shakllantiriladi va shu orqali jismoniy va yuridik shaxslar bilan onlayn mulotoq qilish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda ishonch bildiruvchi shaxs xohishiga asosan masofadan turib yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida onlayn bitimlar (shartnomalar) tuzish va onlayn yuridik yordam ko'rsatish imkoniyati yaratiladi.

B.SHAMETOV, viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i

O'zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati Surxondaryo viloyat tashkiloti jamiyatning Sho'rchi tuman bo'linmasi ijrochi direktori **Abdikasim BALTAYEV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik izhor etadi.

Chorva-chilikda chorva mollarining yuqumli va yuqumsiz kasalliklarining oldini olish va ularga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kuydirgi — (Sibir yarasi) kasallik qo'zg'atuvchisi (Bacillus anthrax) aerob, harakatsiz tayoqcha, inson va hayvonlarga xos bo'lgan o'tkir kechuvchi o'ta xavfli yuqumli kasallik bo'lib, teri va teri osti to'qimalarida sirrozli va gemorragik shishlar paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Ko'p asrlar davomida kuydirgi keng tarqalgan kasallik bo'lib, bir zamonlar odamot boshiga ko'p talafot keltirgan. Qadim zamonlarda kuydirgini "Muqaddas olov", "fors olovi" nomlari bilan atashgan. 1788-yili rus olimi S.Andreyevskiy bu kasallikni "Sibir yarasi" deb atashni tavsiya etgan.

Kuydirgi kasalligi qo'zg'atuvchisi tuproqda 80 yil va undan ortiq muddatlarda o'zining kasallik qo'zg'atish qobiliyatini saqlaydi. Kasallik manbalari bo'lib kasal hayvonlar, ulardan olingan mahsulotlar (go'sht, sut, teri va

qo'lib, o'g'irlikni kasb qilib olishdi. Nafsi hakalak otganlar har safar yanada ko'proq o'lja bilan qaytishga erishishardi. Buzoqning yugurgani somonxonagacha... deya bejiz aytishmas ekan, o'g'rilar mol bozorida qo'ylarni pullayotib, qo'lga tushdi. Jabr ko'riganlarning zararlari qoplandi. Bu bilan jinoyat ko'chasida shaltoq otayotgan yigitlarning aqli kirarmikan? Qaniydi, undan ko'ra o'qib-o'rganishsa, biror ishning boshidan tutib, halol luqma bilan kun ko'rishsa... haromdan hazar qilmaslikning oqibati shu bo'lsa kerak. Ular kerakli jazoni oldi, xulosa chiqarishlaridan umidvormiz.

S.SUVONQULOV, Jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi sudyasi

YO'G'-E'!

Uch bahodir, uch mushketyor, uch og'a-ini botirlar haqida gap ketdimi, xayolimizda bahodirlik ko'rsatgan, jabrdiyda xalqni o'yab qahramonlik ko'rsatgan obrazlar g'aydalanadi. Ular yaxshilik ulashib, xalqning, balki tomoshabinning-da, mehr-muhabatini qozonadi.

Termizlik 20-21 yoshlardagi 3 bahodir bir bo'ldi-da... shu o'rinda ular qandaydir tashabbus boshlagani, muvaffaqiyatga erishgani haqida to'xtalishimizni kutayotgan bo'lsangiz adashasiz, ular bekorchilikdan pul topishning oson yo'lini ko'p ham o'yab o'tirmay topa qolishdi. Kechki sayr davomida kelgan fikrni qarang, "o'g'rilik qilmaymizmi?" qo'qqisdan kelgan fikrdan hech



Marg'ilon hisob-kredit texnikumi tomonidan Amanov Sobirjon Xusanovichga berilgan I 76833 raqamli diplom va ilovasi yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

SUDLAR FAOLIYATIDAN

Unda mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish strategiya yo'nalishlari belgilab berilgan.

Mazkur dastur ijrosi sifatida davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatini ustidan sud nazoratini o'rnatish, fuqaro hamda tadbirkorlik subyektlarini odil sudlovga erishish darajasini oshirish, "Xabes korpus" i yordamida tergov ustidan nazoratni kuchaytirish, sudlar tizimida "yagona darcha" tamoyilini keng joriy etish maqsadida arizalarni sudga taalluqligidan qat'i nazar qabul qilish kabi

"SARVARA-AZIZBEK-FAYZ" fermer xo'jaligiga tegishli bo'lgan muhr va tamg'a yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

2014-yilda Sho'rchi qurilish uy-joy kommunal xo'jalik KHK tomonidan Usmonov Nuriddinxon Boxodirxon o'g'liga berilgan K 3433153 raqamli diplom va ilovasi yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

03.02.2020-yilda vafot etgan Berdiyev Furqat Kamilevichdan qolgan mol-mulikka nisbatan meros ishi ochilganligi sababli merosxo'rlarining meros ulushini olishlari uchun Termiz shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi Yulbarsov Alayyar Pandjiyevich notarial idorasiga yetib kelishlari so'raladi.

1993-yilda Jarqo'rg'on tumanidagi 40-sonli umumta'lim maktabi tomonidan Musurmonov Shuxrat Shodiyevichga berilgan AU 191607 raqamli attestat yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Nafsi hakalak otib...

Ovora bo'lmay

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoniga asosan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlangan.

yo'nalishlar belgilab olindi. Dasturlar doirasida zarur tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, yarashuv institutini qo'llash doirasini yanada kengaytirish, sud tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarini tizimlashtirish ishlarini olib borish kabi vazifalar belgilandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya etilishini ta'minlash hamda aholining sudlarga bo'lgan ishonchini yanada oshirish chora-

tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Mazkur qaror sudlarning, ayniqsa, ma'muriy sudlarning rolini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muammoni hal qilish maqsadida sudma-sud yurishning o'zi asababzarlik va dilxiralikka yetaklovchi jarayon. Yurtimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar esa xalqimiz manfaatiga xizmat qiladi.

A.SHAPIYEV, viloyat ma'muriy sudi sudyasi katta yordamchisi

2021-yilda Termiz tumanidagi 12-sonli matematika fanini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab tomonidan Shonazarova Dilfuza Xurshid qiziga berilgan UM 1013290 raqamli shahodatnoma yo'qolganligi **MA'LUM QILINADI.**

Safingizda bo'lsaydim...

Yoshlarni birlashtirgan festival

Termiz shahridagi San'at saroyi, uning kunchiqar tomonidagi Amfiteatr sahnasi va maydonlar ikki kun davomida shijoatli yoshlar hamda san'atsevar tomoshabinlar bilan gavjum bo'ldi. Garchand quyosh tafti zabtiga olib, harorat 45 daraja issiq bo'lsa-da, hech kimning festivalni tark etgisi yo'q edi. Viloyat hokimligi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi hamkorligida o'tkazilgan “Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida tashkillashtirilgan festival jarayonlarida yoshlarning hamjihatligi hamda uyushqoqligi besamar ketmadi. Festivalga viloyatning barcha shahar-u tumanlaridan, olis qishloq va guzarlaridan tashrif buyurgan yuragida o'ti, qonida shijoat jo'shib turgan o'g'il-qizlar san'at, sport, hunarmandchilik sohalarida o'zlarining iqtidorlarini namoyon etdilar. San'at saroyi keng maydonida vohaning tuman va shaharlari yoshlar tashkilotlari tomonidan o'ziga xos tarzda bunyod etilgan qo'rg'onlar, ellikka yaqin o'tovlar, ming yillik qadriyatlarimiz va an'alarimiz asosida tashkil qilingan o'nlab milliy xalq amaliy san'ati ko'rgazmalari, sahna o'rindiqlari tomoshabinlar bilan gavjum bo'ldi.



Festivalga tashrif buyurgan yosh-u qari dunyoning hech bir joyida uchramaydigan xalq amaliy san'ati, milliy liboslar, taqinchoqlar, do'ppilar, milliy taomlar rang-barang ko'rgazmalaridan tashqari havo sharlarining uchirilishi, yosh san'at g'unchalarining dilrabo kuy-qo'shiq hamda betakror raqslarini miriqib tomosha qildilar. Maktab, kasb-hunar texnikumlari, oliy ta'lim muassasalari jamoalari va talabalaridan tarkib topgan badiiy dastalar, folklor-etnografik ansambllar, baxshilar, madaniyat va san'at namoyandalari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar, sho'x yallalar ikki kun davomida keng maydon uzra yangrab turdi. Vatan madhi, yurt tinchligi, muhabbat, sadoqat tarannum etilgan qo'shiqlardan yoshlar dildan o'ynab, dildan quvnadilar. ***

Qaysi joyda qanday tadbir o'tkazilmasin, shubhasiz, sport musobaqalari ishtirokchilar va tomoshabinlarning diqqatini tortadi. Festival doirasida o'tkazilgan milliy o'yinlar musobaqasida voha yoshlari faol qatnashdi. “Qarabtep” bahslarida vohaning chaqqon sportchilari orasida oltinsoylik Asror Tag'ayev tengdoshlaridan ancha ephilligini ko'rsatdi. Stol tennis musobaqalarida boysunlik Shahzod Xolmamatov eng yaxshi tennischi, deb e'tirof etildi. Tosh ko'tarish bahslarida Termiz tumanilik o'quvchi Olim Pirmuqlov vazni 16 kilogramli toshni 49 marta ko'tarishga erishdi. Kamondan o'q otish bahslari 14 tuman vakillari orasida qizg'in kechdi. Bandixonlik Fayzullo Ahmadov, denovlik Jahongir Ko'charov, muzrabotlik Nuriddin Ahmedovlar peshqadam bo'ldi.

Festivalda “Arqon tortish” bahslari g'oyat qiziqarli va kurashlarga boy bo'ldi. Qumqo'rg'on tumanining 5 nafardan iborat polvon yigitlari qur'a natijalariga ko'ra finalgacha bo'lgan bellashuvlarda raqiblaridan ustun kelishdi. Finalda ularga jarqo'rg'onlik arqon tortish hadisini olgan alp yigitlar ro'baro' keldi. Qumqo'rg'onliklar tarkibida bilagida kuchi, oyog'ida darmoni dadil yigitlar to'plangan uchun ular g'olib bo'ldilar. Sherobodlik yoshlar jamoasi “Arqon tortish” bahsida uchinchi o'rin bilan kifoyalanishdi. O'xirgi yillarda yoshlar o'rtasida sportning Armrestling turiga qiziquvchi va shug'ullanuvchilar safi ortib borayotgani ijobiy hol. Nafaqat bilakda kuch to'plashga intilish, shu bilan birga tanani chiniqtirishni talab etadigan ushbu sport turi musobaqalari hamisha qiziqarli o'tadi. Termiz shahridagi “Surxon” sport majmuasida murabbiylik qiladigan Ulug'bek Yalqayev qo'l kuchini sinash bahslarida ham o'ng, ham chap qo'li bilan raqiblaridan ustun keldi. Sherobodlik Bobur Hamroyev, boysunlik Behzod Umidul-layevlar ham qo'lda kuch sinash bellashuvlarida ancha abjirliklarini ko'rsatdilar. Festival doirasida Termizdagi baxshichilik san'atiga

ixtisoslashtirilgan respublika maktabida viloyat yosh baxshilari o'rtasida tanlov o'tkazildi. Viloyatning har bir tumanidan ikki nafardan, jami 30 nafar yosh baxshi yoshiga qarab uch guruhga bo'lingan holda bellashdi. Ularning har biri do'mbira chertish, terma ijro etish, doston aytish bo'yicha peshqadam bo'lishga intilishdi, to'garaklarda egallagan bilim va do'mbira chertish ko'nikmalarini tomoshabinlarga namoyish qilishdi. Hay'at a'zolarining adolatli baholashlari

kitobxonlar o'rtasida “Yosh kitobxon” ko'rik-tanlovi, imkoniyati cheklangan yoshlar orasida “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida shaxmat, shashka va san'at yo'nalishlari bo'yicha tanlovlar o'tkazildi, shuningdek, 15 ta “Damas” avtomashinasiga yuklangan turli adabiyot va badiiy asarlardan iborat “Kitoblar karvoni” belgilangan manzillarga yetkazildi. Kechga yaqin San'at saroyi amfiteatrida festivalning badiiy qismi boshlandi. Viloyat hokimining o'rinbosarlari I.Safarov

jamoalari a'zolari to'rt shart bo'yicha bahslashdi. Finalda Termiz davlat universiteti Pedagogika institutining “A'lo+” jamoasi bilan “Medstar” jamoasi yoshlari bellashdi va g'oliblik pedagogika instituti jamoasiga nasib etdi. Har ikki jamoa a'zolariga 13 million so'mlik vaucher topshirildi.

Festivalning ikkinchi kuni viloyat hokimi T.Bobolovning “Hokim va yoshlar” uchrashuvi bilan boshlandi. Vohaning birinchi rahbari iqtidorli, tashabbuskor yoshlari bilan dildan suhbatlashdi. Yoshlar viloyat rahbariga o'z takliflari va biznes rejalarini aytishdi. Viloyat hokimi esa yoshlarga qulay sharoitlar yaratish bo'yicha rejalashtirilgan ishlar haqida so'zsladi. Shundan so'ng, o'qish va jamoa ishlarida faollik ko'rsatib kelayotgan bir guruh yoshlarga viloyat hokimligining esdalik sovg'alari topshirildi. Jumladan, o'quv muassasalarida to'lov-shartnoma asosida tahsil olayotgan Asadbek Saitqulov, Mavluda Normamatova, Oyatullo Ne'matov, Ramazon Xolmurodov, O'rol Tojiyev singari yoshlarning shartnoma mablag'lari to'lab beriladigan bo'ldi. ***

Sport maydonchalarida qiziqarli musobaqalar davom etdi. Ayniqsa 12-16 yosh toifasidagi o'g'il-qizlar o'rtasida bo'lib o'tgan shaxmat musobaqasida 36 nafar yosh shaxmatchi

tumani iqtidorli yoshlari har jihatdan puxta tayyorgarlik ko'rgani avval boshdanoq ma'lum bo'ldi. Ular barcha savollarga aniq va to'liq javob bergani uchun zafar quchib, 25 million so'mlik mukofotni qo'lga kiritdilar. Qumqo'rg'on va Termiz tumani zakovatchilari ham puxta bilimga ega ekanliklari bilan tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lishdi.

Shuningdek, birdamlik, hamjihatlik namunasi o'laroq, festival ishtirokchilari o'rtasida Termiz shahridagi “Muzsaroy” hududidan to festival o'tkazilayotgan manzilgacha yurish marafoni tashkil qilindi. Unda iqtidorli yoshlar, harbiylar, sportchilar, yoshlar yetakchilari hamda volontyorlar hamjihat bo'lib harakat qilishdi. ***

Festivalning o'ziga xos, betakror jihati shu bo'ldiki, bunday tadbirlarda birinchi bor “Tandir kabob” va “Cho'poncha” go'sht pishirish sayli o'tkazildi. Viloyatimizning barcha shahar va tumanlaridan tashrif buyurgan eng pazanda oshpazlar 14 ta tandirda “Tandir kabob” va xuddi shuncha qozonda “Cho'poncha” go'sht pishirib tomoshabinlarga ulashdilar. Hay'at a'zolari Termiz tumanidan Abdusalom Xolliyev va Sariosiyo tumanidagi “Mo'min tandir” oshxonasining oshpazi Yusuf Abdurahmonov tomonidan tayyorlangan tandir va cho'poncha



natijasida 23-30 yoshgacha bo'lgan baxshilar bahsida Qumqo'rg'on tumanidagi “Yangiyer” mahallasida yashovchi Olim Aliqulov, 16-22 yoshgacha bo'lgan yosh ijrochilar bellashuvida Qiziriq tumanidagi “Yangiobod” mahallasi fuqarosi Shahriyor Toshmurodov, 5-15 yoshli baxshilar bahsida Muzrabot tumanidagi “Yangi diyor” mahallasida yashovchi Diyorbek Rasulov g'olib bo'lishdi va ularning har biriga 3 million so'mlik vaucherlar topshirildi. Dilnoza Lazizova “Eng yosh baxshi”, Akram Mamarajabov “Eng yaxshi doston ijrochisi”, Abdalaziz Normurodov “Eng yaxshi kuy ijrochisi”, Bekzod Hamidov “Eng yaxshi terma ijrochisi” nominatsiyalari bo'yicha tanlov g'olibi deb topildi.

Festivalning dastlabki kuni 16-30 yoshdagi

va J. To'rayevlar festival ishtirokchilari hamda tomoshabinlarni qutlashar ekan, o'tkazilayotgan festivalning maqsadi va vazifalari haqida so'z yuritdilar. Shundan so'ng viloyatimizning madaniyat va san'at koshonalarida faoliyat ko'rsatayotgan yosh va taniqli san'atkorlar tomonidan katta konsert namoyish qilindi. Soat tungi o'nga yaqinlashgan bo'lsa-da, festival ishtirokchilari “Janub zukkolari” telebellashuvi musobaqalarini intiqlik bilan kutdi. Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining “Janub yulduzlari”, Termiz davlat universiteti Pedagogika institutining “A'lo+”, Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining “Medstar”, Denov Tadbirkorlik va pedagogika institutining “Onlayn”



64 katakli taxtalarda o'zaro bahs yuritdi. Shveysarcha tizimda o'tkazilgan musobaqalarda denovlik Aziza Rahmatova, termizlik Muxlisa Turdimurodova, oltinsoylik Mirkomil Abdullayev, Termiz shaharlik Abror Shosaidovlar g'olib bo'ldilar. ***

“Zakovat” intellektual o'yinida 15 ta jamoa qatnashdi. Bahslarga Qiziriq

go'shtini eng mazzali deb topishdi.

Festival yakunida viloyatimizning madaniyat va san'at koshonalarida faoliyat yuritayotgan xonanda va raqqosalar hamda poytaxtdan kelgan taniqli san'atkorlar Ruxshona, O'zbekiston xalq artisti Mahmud Namozov hamda “Bojalar” guruhi a'zolari ishtirokida festival qatnashchilari uchun gala konsert uyushtirildi.

Usmonali NORMATOV, Naimullo MUHIBULLOYEV (surat)

